

**BOLANING IJTIMOIYLASHUV JARAYONI TA'SIR QILUVCHI OMILLAR.
IJTIMOIYLASHUV BOSQICHLARI, IJTIMOIYLASHUV JARAYONINING
AHAMIYATI****Xatamov Boburjon Qosimjon o'g'li***Mahalla va oila ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: *Bola tug'ilganidan boshlab atrof-muhitga maslasha boshlaydi. Bu muhitning qandayligiga qarab bolaning shaxsiyati shakllana boshlaydi. Bolaning jamiyat o'rnatgan ijtimoiy me'yorlarga moslashishida oil ava boshqa ijtimoiy agentlar va vositalarning o'rni katta. XX-XXI asr insoniyat tarixida eng ko'p texnologiyalar ixtiro qilinga davr hisoblanib, bu texnologiyalar ham shaxs ijtimoiylashuvida o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiylashuvning bosqichlari, unga ta'sir qiluvchi omillar, agentlar va muassasalarni o'rganish doim muhim bo'lib kelgan, bu ayniqsa yildan-yilga yangilanayotgan hozirgi jamiyatimiz uchun muhim.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiylashuv, desotsializatsiya, ijtimoiylashuv agentlari, ijtimoiylashuv bosqichlari, ijtimoiylashuv institutlari, virtual olamning bola ijtimoiylashuviga ta'siri.*

Abstract: *A child begins to adapt to the environment from birth. Depending on the environment, the child's personality begins to form. Family and other social agents and tools have a great role in the adaptation of the child to the social norms established by the society. The 20th-21st century is considered the period when the most technologies were invented in the history of mankind, and these technologies are also gaining special importance in the socialization of the individual. It has always been important to study the stages of socialization, its influencing factors, agents and institutions, which is especially important for our modern society, which is being renewed every year.*

Key words: *socialization, desocialization, agents of socialization, stages of socialization, institutions of socialization, influence of the virtual world on child socialization.*

Biz o'z qoidalari, me'yorlari va talablariga ega bo'lgan dinamik jamiyatda yashayapmiz. Bu dunyoga kelib, odam muloqot qilishni boshlaydi. Kichkintoylarning boshqa odamlarga bo'lgan birinchi reaksiyalari 1,5-2 oyligida sodir bo'ladi. Xatto ona qornidaligidayoq yaqinlarining ovoziga ta'sir qiladi: onasining qorniga tegishiga javoban itarishadi. Bu har bir odam ijtimoiy mayjudot hisoblanib, jamiyat bilangina rivojlanishini isbotlaydi. Jamiyatdan uzilib qolgan odamlar esa shaxs sifatlarini yo'qotadi. Bu ayniqsa 5-6 yoshgacha bo'lgan davrda insonlar orasida ulg'ayishi muhim. Aks holda "Maugli bolalari" kabi qaysi to'dada katta bo'lgan bo'lsa o'sha to'daning tilida gaplashadi, ulardek harakat qiladi, ularning ovqatlaridan tanovul qiladi. Uni qayta odam qilishga urinishlarning ko'p samarasiz yakunlangan⁵⁸. Shuningdek, bolaning jamiyat o'rnatgan qoidalar va qadriyatlariga moslashuvi uzoq vaqt oladigan jarayondir. Bu bizning hayotimizning aksariyat qismini oladi va bu hammada har xil kechadi.

⁵⁸ <https://minikar.ru/uz/health/deti-maugli-v-mirovoi-istorii-feralnye-lyudi-det-i-vospitannye/>

Ayniqsa so‘nggi 30 yilda insonlar o‘zлari uchun virtual olamni va unda turli jamiyatlarni yaratishdi. Bugungi kunda dunyo aholisining 5.3 milliard kishisi internet doydalanuvchisi hisoblanadi. Insonlar ijtimoiylashuv jarayoniga faol ta’sir ko‘rsatayotgan yangi vositalar paydo bo‘lmoqda. Z.T. Saliyeva fikriga ko‘ra, dunyo hamjamiyati miqyosida shaxsga doir sifatlarning an’anaviy modellari va ananaviy turmush tarzidan ularni modernizatsiyasi tomon sezilarli o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. “Shaxsning individual, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini tashkillash sifatlari va qobiliyatları, dunyoqarash va madaniy kenglik, bag‘rikenglikning ahamiyati ortib, shaxsning dinamik kasbiy, siyosiy va ijtimoiy-progressiv jarayonlarda kirishishini tormozlaydigan xulq-atvor stereotiplaridan voz kechish ro‘y bermoqda”⁵⁹ Ayrim insonlar real hayotdagи munosabatlardan ko‘ra virtual olamdagи so‘zlashuvlarni ustun qo‘yib online jamiyatlarda vaqtlarini o‘tkazayotgani bor gap. Bu yangi vositalar kishilar ijtimoiylashuviga qanday ta’sir qilmoqda. O‘z navbatida haqiqiy hayotda ham virtual hayotda ham ijtimoiylashuv jarayoni 5 daqiqada yoki bir kunda sodir bo‘lmaydi.

Inson va jamiyatning o‘zaro ta’sirining natijasi ijtimoiylashuv jarayonidir. Shaxs ma’lum bir jamiyatga kirganda, o‘sha jamiyatning qoidalariga bo‘ysunishga majbur bo‘ladi. Ya’ni, jamiyat unga ta’sir qiladi. Ammo shaxs hamkeyinchalik o‘zining boshqa jamiyatlarda orttirgan bilimi, tajribasini bu jamiyatga ham olib kira boshlaydi va o‘z navbatida shaxs ham jamiyatning o‘zgarishi, takomillashishiga ham ta’sir qiladi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni butun umri davomida davom etadi, chunki jamiyat doimo rivojlanishda bo‘lib, doimiy o‘zgarishlar va yangilanishlarni sinab ko‘radi. Jamiyat ichidagi insonlar ham bu yangilanishlarga moslashishga majbur. Aks holda boshqa jamiyatlarga ketish yoki ajralib chiqishlariga to‘g‘ri keladi. Hozirgi XXI asrdagi jamiyatlarning ko‘pchiligi oldingi davrlardan ko‘ra ancha tolerantroq va bag‘rikengroq. “Ijtimoiylashtirish – jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir”⁶⁰.

“Pedagogikada shaxs ijtimoiylashuvida asosiy uch holat, ya’ni faoliyat, muomala va o‘z-o‘zini idrok etish ajratiladi. Shu holatlarning ilk o‘rgatilishi va amaliy qo’llanilishi oilada kichadi” .

Jamiyatga moslashish bosqichlari: Jamiyatdagи odam bir necha bosqichlarda moslashib boradi. Ular o‘zaro bog‘liqdir. Bolaning avvalgi bosqichda olgan ko‘nikmalari keyinchalik takomillashtiriladi va ijtimoiylashuvning boshqa xususiyatlarini paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi. Shuningdek rossiyalik olim A.V.Petrovskiy tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda, ijtimoiylashuv jarayonini quyidagi: a) moslashuv, b) individuallashuv v) integratsiyalashuv kabi uchta bosqichga ajratilganini ko‘rish mumkin⁶¹.

Chaqaloqlik - bu bosqich chiqaloqning dastlabki 2 yilini qamrab oladi. Bu bosqichda kattalar bilan muloqoti muhim ahamiyatga ega. Bola unga murojaatga javob berishni, salbiy va ijobjiy his-tuyg‘ularni ajratib olishni o‘rganadi.

⁵⁹ Z.T.Salieva Pedagogika kolleji o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish – kasbiy ijtimoiylashtirish omili sifatida. Diss.. T., 2010. 9-b.

⁶⁰ N.M.Egamberdiyeva “Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariysi va amaliyoti. Ped.f.dokt. ...diss.avt.-Toshkent:2010, -b.18

⁶¹ Petrovskiy A.V. Всегда ли права родители / А.В. Петровский –М.: Изд-во Аст, 2003. -32c

Erta bolalik (ikki yoshdan besh yoshgacha). Bola dunyoni faol o'rganadi, shu bilan birga obyektlar bilan ishlashni, ularni boshqarishni o'rganadi. Bu bosqichdagi ijtimoiylashuv agentlari asosan ota-onalar va oiladagi boshqa a'zolar hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalik (ba'zan uch yoshdan yetti yoshgacha). Ushbu davrdagi yetakchi faoliyat o'yin faoliyati. Bu bosqichda bola oiladan tashqaridagi jamiyatga faol aralasha boshlaydi. Bog'chadagi, mahallasidagi tengdoshlari bilan o'ynashni boshlaydi. Ammo bu bosqichda bola shaxsiyatining ijtimoiylashuvi jarayoni o'yinlarda rol o'ynash orqali sodir bo'ladi. Jamiyatning kichik a'zosi tengdoshlari bilan kichik jamiyat bo'lgan oiladagi turli xil rollarni bo'lib olib o'ynashni o'rganadi. Shu bilan u asosiy me'yorlar va qadriyatlarni, avvalambor, oilani qabul qila boshlaydi.

Kichik maktab yoshi 7 yoshdan 11 yoshgacha davom etadi. Bola rivojlanishining ijtimoiy holati jiddiy o'zgarishga uchraydigan bosqichi. Bu davrda u maktabga ya'ni ta'llim dargohiga chiqadi va uning zimmasiga ma'lum qoidalarga amal qilish, vazifalarini bajarish kabi ma'suliyatlar tushadi. Yangi sharoitlarga moslashish jarayonida asosiy ijtimoiylashuv agenti o'qituvchisi hisoblanib bola ba'zan ota-onasidan ham ko'proq u bilan ko'proq muloqot qiladi.

O'smirlilik davri ((10)12-14 yosh). Yangi bilimlar yordamida, uning fikrini kontseptual fikrlash asosida shakllana boshlaydi, shuningdek, tengdoshlari bilan faol o'zaro munosabatlarga kirishadi. O'smir jamiyat me'yorlari va talablariga o'rganishni davom ettiradi, xatto ba'zilarini rad etishi ham mumkin. A.G.Gresov "Ota-onalar va o'smirlar uchun amaliy psixologiya" kitobida o'smirlilik davri mustaqilligi haqida shunday yozadi: "Biologik nuqtai nazardan o'smirlar butunlay katta odamga aylanadilar, lekin, jamiyatning nazarida ular hanuzgacha bola hisoblanadi. Oilada katta avlod vakillari o'smirlarga kichik bolaga muomala qilganday munosabatda bo'ladilar. O'smirlilik davrida "bola buziladi" degan fikr, oldingi avlodlardan meros fikr ham hisoblanishini unutmaslik kerak⁶². Ba'zilariga to'liq, ko'r-ko'rona tanqidiy fikrlashsiz bo'ysunishi ham mumkin.

Erta o'spirinlik davri - 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar. Ushbu bosqichda har bir o'g'il yoki qiz hayotida bir nechta muhim voqealar sodir bo'ladi. Bu balog'at yoshi, unda yoshlar kattalar dunyosiga aralashadilar; o'qishlarni yakunlash, shu bilan birga mustaqilroq bo'ladi. Jamiyatga yanada ko'proq aralashishga majbur bo'ladi. Ijtimoiylashuvga ehtiyoj ortadi.

Kechki o'spirin (18-25 yosh). Shaxs mehnat faoliyatida faol ishtirok etadi. Ba'zilar o'qishni davom ettiradi, kasb-hunar egallaydi. Yoshlar asta-sekin jamiyatning ijtimoiy me'yorlarini o'rganadilar va qabul qiladilar. Boshqa insonlar bilan o'zaro aloqada bo'lishni, mehnat vazifalarini taqsimlashni va ularni bajarishni o'rganadilar. Shaxsiyat ijtimoiy va kasbiy jihatdan rivojlanadi.

Voyaga etish (25-65 yosh). Inson mehnat faoliyatida yaxshilanadi va o'z-o'zini tarbiyalash bilan birga farzandlarini, atrofidagi insonlarga ijtimoiy me'yorlarni o'rgatish bilan ham shug'ullanadi.

Ishdan keyingi faoliyat (65 yosh va undan yuqori). Inson nafaqaga chiqadi, hayotning ba'zi natijalarini sarhisob qiladi. Yoshlarga ijtimoiy me'yorlarni o'rgatishda faol darajaga yetadi. Agar ijtimoiy me'yorlar uning yoshligidan ko'ra keskin o'zgargan bo'lsa yoshlik davridagi

⁶² Практическая психология для родителей и подростков. СПб.: «Питер», 2006 -160 с.

ijtimoiy me'yorlarni qumsab, hozirgi ijtimoiy me'yorlarni faol tanqid qilishga o'tadi. Lekin bu avlod vakillari jamiyatning an'ana va qadriyatlarini keskin buzilib ketishini oldini oluvchi himoya qatlami hamdir.

BMT Konvensiyasiga ko'ra, bola - bu balog'at yoshiga etmagan shaxs, balog'at yoshi esa 18 yosh.

Ijtimoiylashuv jarayoni oddiy jarayon emas. U o'z ichiga ijtimoiylashuv omillari kabi tushunchani ham oladi. Bunday holda, biz ushbu shartlar va bola uchun muayyan normalar va asoslarni aniq shakllantiradigan jamiyatning xatti-harakatlari haqida gapiramiz. Omillar to'rtta ulkan guruhga bo'linadi: megafaktorlar, ibratli omillar, mezofaktorlar, mikrofaktorlar. Bular bolaning ijtimoiylashuvidagi turli makonlar. Masalan, oila, mahalla, maktab mikrofaktor omillarga kirsa, global, sayyoraviy munosabatlar, o'tmish,badiiy adabiyot kabilar megafaktorlarga kiradi.

Bolaning tarbiyasi va ijtimoiylashuvi agentlar ta'siri ostida amalga oshiriladi. Ular kim? Demak, ijtimoiylashuv agentlari bu shaxslar, muassasa yoki guruhlardir, ularning ta'sirida bola jamiyatda o'zini tutishning muayyan me'yorlari, qadriyatlari va qoidalarini o'rganadi. Hozirgi kunda virtual olam vositalari ijtimoiy agentlar vazifasini bajarmoqda albatta ma'lum profildagi shaxslar, guruhlar. Xatto o'tgan yildan boshlab sun'iy intellektning yangi ko'rinishi chatGPT sun'iy intellekti chiqdi. U siz bilan turli mavzularga suhbat qurishi, savollaringizga javob berishi mumkin. Bolalarning ijtimoiylashuviga bugungi kunda eng katta ta'sir qiluvchi agentlar: uning ota-onasi, oila a'zolari, qarindoshlari, qo'shnilar, ustozlari, sinfdoshlari, virtual olam vositalari hisoblanadi. O.Brimming ma'lumotiga ko'ra ijtimoiyashuv asosan, oilada shakllanadi⁶³. Shunday qilib, dastlabki ijtimoiyashuv jarayonida aynan oila muhim ahamiyat kasb etadi. Tug'ilgandan so'ng, bola ojiz va u uchun yangi dunyoda hayotga hali to'liq tayyor emas. Va faqat ota-onalar va boshqa yaqin qarindoshlar unga birinchi marta moslashishga yordam berishadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tug'ilgandan keyin bola nafaqat o'sadi va rivojlanadi, balki ijtimoiyashadi. Axir u atrofda ko'rgan narsalarini o'ziga singdiradi: ota-onalar bir-biri bilan qanday aloqa qilishadi, nima va qanday gapirishadi. Biroz vaqt o'tgach, kichkintoy uni ko'paytiradi. ota-onalar xotirjam bo'lsa, baland ovozda muloqot qilmang va baqirmang, chaqaloq bir xil bo'ladi. Aks holda, bolalar kayfiyatsiz, asabiy, tezkor bo'lishadi. Bu ijtimoiyashuvning o'ziga xos jihatidir. Bola jamiyatda o'zini qanday tutishi ota-onani qiziqtirsa ular bolaning yonida jamiyatning boshqa vakillariga qanday munosabatda bo'lsalar bolalar ham jamiyatning boshqa vakillariga shunday munosabatda bo'ladilar. Vaqt o'tishi bilan bolalar bog'chasida, ko'chada boshqa bolalar bilan qanday munosabatda bo'lishi ota-onaning jamiyatdagi yurish-turishiga, bolaga o'rgatayotgan tarbiyasiga bo'g'liq. "Ota-onalar ko'p hollarda o'smirlik davrining boshlanishi bilan yuzaga chiqadigan muammolarga to'qnash keladilar. "Men"ning anglashilish shakllari va ko'rinishlarining namoyon bo'lishi o'smirlik davriga to'g'ri kelib, ularning yangi tuyg'u, istak, orzular paydo bo'lib, ko'pincha bu narsalar yakka shaxsning "kimligi", "Qandayligi", "kimga va nima uchun kerakligi"iga yo'naltiriladi"⁶⁴.

⁶³ Brim O.G.J. Socialization through the life cycle // O.G.Brim, Iraud S. Wheeler (EDS)/Socialization after childhood.

B.Y., 1977

⁶⁴ E.Klapared Экспериментальная педагогика и психология ребёнка.//Вопрос психологии. -1991. -Т.3. -№6. -С.118-

121

Agentlar ijtimoiy me'yorlarga rioya qilsalargina bolalarini muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishlari mumkin. Agar oila to'liq bo'lmasa, oila a'zolari doimiy janjallashadigan bo'lishsa, ularning biri doimiy xizmat safarlarida yoki ishga erta ketib kech keladigan bo'lsa ham bu bolalarining sog'lom ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir qiladi. Ota-onasi o'rmini boshqa ota-onasi bo'lмаган agentlar to'ldiradi. Bu to'ldirish qanchalik o'zini oqlaydi yoki yo'q bu bolaning axloqiga qarab xulosa qilinaveradi. Shuningdek oila to'liq bo'lsa-yu, lekin axloqiy jihatdan jamiyatning ijtimoiy agent roliga munosib bo'lmasa, bu ham bola ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir qiladi. Agentlarning bola shaxsiyatiga kam e'tiborliligi, uning me'yordan og'gan holathlariga chora ko'rmasligi, ularning tarbiyasi bilan shug'ullanmaslik holatlari ham katta salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Qasddan huquqbuzalik sodir etilgan jinoyatchilarining ko'pchiliginigijtimoiylashuv muhiti o'rganilsa ularning nosog'lom muhitda voyaga yetganligi yoki nosog'lom guruhga qo'shilib qolganligiga guvoh bo'lish mumkin. Ular insонning ijtimoiy qoidalarga moslashishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar tufayli inson axloqiy, huquqiy, estetik, siyosiy va diniy qoidalarni biroz tushungan holda ijtimoiy me'yorlarning shakllarini qabul qilishi mumkin.

Ijtimoiylashuv turlari: ijtimoiylashtirishning bir nechta qo'shimcha va ikkita asosiy turi mavjud: boshlang'ich - bu bolalik davrida jamiyatni anglash. Bola jamiyatni oilaning madaniy pozitsiyasi va dunyoni kattalar - ota-onalar tomonidan idrok etish orqali o'rganadi. Tarbiya qonunlari orqali asosiy qadriyatlarni singdirish orqali ota-onalar bolaning birinchi tajribasini shakllantiradi. U bu tajribani o'z tajribasi singari boshdan kechiradi va identifikatsiya mexanizmi orqali boshqasini idrok etishni o'rganadi. Psixolog N.I.Nepomnyashaya o'zining "Shaxs psixodiagnostikasi" kitobida "qadriyatlar" shaxs shakllanishida asosiy markaziy tizimlarni boshqaruvchi omil, deb hisoblaydi⁶⁵. Muhim kattalar bilan muloqot qilish orqali bola sodir bo'layotgan voqealarni baholash elementlarini shakllantiradi.

Ikkilamchi - oxiri yo'q va inson professional doiraga, qiziqish kompaniyalariga va boshqa kichik va katta ijtimoiy guruhlarga kirgan paytgacha davom etadi. Bu erda bola turli xil rollarni o'rganadi, qanday rol o'ynashi kerakligi asosida o'zini anglashni o'rganadi. Siz ikkinchi darajali ijtimoiylashuv misollarini osongina berishingiz mumkin: bola uyda o'g'li, maktabda o'quvchi va sport klubida sportchi rolini o'ynaydi. Ammo ba'zida jamiyatga ikkinchi darajali moslashish dunyosi birlamchi (bolalik davrida singdirilgan) narsalarga zid keladi, masalan, oila qadriyatlari bir guruh rok musiqasi muxlislarining manfaatlariga mos kelmaydi. Bunday holda, odam o'zini o'zi aniqlash jarayonidan o'tishi kerak (bu ko'proq mos keladi) va har qanday manfaat yo'nalishini chetga surishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyatning asosiy qoidalari, me'yorlari kamdan-kam hollarda tuzatiladi, tuzatilishi uzoq muddat talab qiladi, chunki bolalikka xos bo'lgan narsani keyinchalik qayta tuzish, ong ostidan chiqarib tashlash qiyin. Bundan tashqari, jamiyatga moslashish muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin

Nogiron bolalarning (ya'ni, nogironlarning) ijtimoiylashuvi qanday ketayotgani to'g'risida alohida-alohida gapirish kerak. Dastlab, shuni ta'kidlash kerakki, bu erda maydalashning asosiy ijtimoiylashuvi eng muhim ahamiyatga ega, ya'ni uyda sodir bo'ladigan barcha narsalar. Agar ota-onalar alohida ehtiyojli bolaga jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida

⁶⁵ Психодиагностика личности: теория и практика –М.:ВЛАДОС.,2001.-192с.

qarashsa, ikkilamchi ijtimoiylashuv iloji boricha qiyin bo'lmaydi. Albatta, qiyinchiliklar bo'ladi, chunki maxsus bolalar ko'pincha salbiy qabul qilinadi yoki tengdoshlari ularga nisbatan ehtiyyot bo'lishadi. Hayoti davomida orttirilgan nogironlik esa "desotsializatsiya"ga olib kelishi mumkin. Desotsializatsiya - bu, shaxsning ma'lum bir bosqichida me'yordagi ijtimoiylashuv jarayonida, ba'zi bir o'zgarishlarga tushib qolishi, ya'ni uning jamiyatdagi ustuvor g'oyaviy maqsadga qarshi bo'lgan yoki bu o'rnatilgan tartibga qarama-qarshi yo'naltirilgan mikromuhit ta'siriga tushib qolishi nazarda tutiladi⁶⁶. Ushbu yo'lda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiy muammolar:

To'liq ijtimoiylashuv uchun zarur bo'lgan yordam vositalarining yetarli emasligi (boshlang'ich, maktablarda panduslarning yo'qligi). Nogiron bolalar haqida gap ketganda e'tibor va muloqot etishmasligi. Bunday bolalarni erta ijtimoiylashuv bosqichida qoldirish, ular o'zlarini umuman boshqacha tarzda qabul qilishni boshlaganlari ijtimoiylashuvni kechiktiradi. Bunday holatlarda maxsus o'qitilgan o'qituvchilar bunday maxsus bolalarning ehtiyojlarini va eng muhimmi, imkoniyatlarini hisobga olishga qodir bolalar bilan ishlashlari kerak.

Shuningdek, har bir bola bilan uning ehtiyojlarini va qobiliyatlariga muvofiq ish olib borish uchun har bir bolaning rivojlanish darajasini aniqlay olish muhimdir.

Yosh ulg'aygan sari turli yosh toifa vakillariga beradigan ma'lumotingiz turlicha ta'sir qiladi. Voyaga etganlar nima bo'layotganini baholashga qodir bo'ladi. Bolalar shunchaki ma'lumotni o'zlashtiradilar, tanqidiy fikrlab ko'rish qobilyatlari shakllanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham xalqimizda "Aldagani bola yaxshi" ma'coli paydo bo'lgan. Ya'ni ijtimoiylashuv darajasi me'yorida bo'lmagan bolalarni aldash oson, ular ishonuvchan emas ma'lujmotlarni tahlil qilgani bilim va tajriblari kamlik qiladi. Bola dunyoni ko'pincha oq va qora ranglarda sodda shaklda tushunadi. Voyaga yetgan kishi nafaqat "oq" va "qora"ni, balki turli xil ranglarni ham ajrata oladi. Bunday odamlar o'zlarini uyda, ishda, jamoada qanday tutish kerakligini, qandaydir rollarni ijro etishni tushunadilar. Bola shunchaki kattalarga bo'ysunadi, ularning talablari va istaklarini bajaradi.

Ba'zan ijtimoiylashuv muvaffaqiyatsiz bo'ladi ham. Ba'zi ekspertlar ruhiy kasalliklar va ijtimoiylashuv jarayonining to'g'ri olib borilmaganli bilan bog'liqligi borligini ta'kidlashadi. Ijtimoiylashuv, shuningdek, agar bola ushbu jarayonlarni oilasida emas, balki turli xil muassasalarda: internat, chaqaloq uyida erta yoshdan o'tkazsa yoki ota-onas befarq, virtual olamga mukkasidan ketgan bo'lsa muvaffaqiyatsiz bo'ladi. Ijtimoiylashuvning muvaffaqiyatsiz bo'lishining sabablaridan yana biri bu chaqaloqlarning kasalxonaga yotqizilishi. Ya'ni, agar bola kasalxonalarning devorlarida ko'p vaqt sarf qilishi umumiyl qabul qilingan me'yorlarga mos kelmaydi.

Birorta ham inson o'ziga boshqa insonlarni o'tkazadigan ta'sirisiz mavjud bo'la olmaydiva bu uning xulq-atvorida turli hayotiy davrlarda turlicha ifodalananadi⁶⁷. Albatta, muvaffaqiyatsiz ijtimoiylashuv, ommaviy axborot vositalari, televizor yoki virtual olam ko'rinishlari internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn video o'yinlar tomonidan bolaga juda kuchli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

⁶⁶ Белинская Е.П. Идентичность личности в условиях социальных изменений Ж Автореферат дис. ...д-ра психол. наук: 19.00.05. -М.: МГУ, 2006. -42

⁶⁷ Smezler N. Sotsiologiya. -М., 1994. 215-b

Maktabda ijtimoiylashuv o‘z funktsiyalariga ega: shaxsning madaniy-ma’rifiy rivojlanishi, unda mantiqiy fikr yuritishga va qaror qabul qilishga qodir bo‘lgan yetuk va vakolatli odamlar shakllanadi;

tartibga soluvchi va tarbiyaviy - atrofdagi haqiqatga ijobiy munosabat, qadriyat munosabatlari, faoliyat motivatsiyasi va boshqalarni shakllantirish va tarbiyalash;

kommunikativ - bola rolni tutish ko‘nikmalarini o‘rganadi, muloqot qilishni o‘rganadi; tashkiliy va boshqaruv - talabaga shaxsiy makonini, vaqtini tartibga solishda yordam beradi;

ijtimoiy integratsion - ishonchli munosabatlarni, jamoaviy birdamlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Ijtimoiylashuvda muhim odamlar sifatida tengdoshlarning ahamiyati. Tengdoshlar shaxsiyat ijtimoiylashuvining alohida agentlari sifatida ajralib turadi. Nima uchun ular bolaning rivojlanishi uchun juda muhim? O’spirin va undan katta yoshdagil odam o‘zini qiziqtirgan ma'lumotlarga ehtiyoj sezadi. Bu kattalar tomonidan emas, balki tengdoshlar tomonidan to‘liq ta'minlanishi mumkin. Shu sababli, qiziqish guruhlari shakllantirilib, ularda shaxsiyat rivojlanishda davom etadi. Ba’zi bolalar sinflar ichida o‘ziga o‘xshagan do‘stlar bilan tez til topishishadi, bunda ularning o‘zaro qiziqish, dunyoqarashlarining mos kelishi sabab. Ota-onalar bolani noto‘g‘ri sozlangan submultural guruhlar ta’siriga tushib qolmasligi uchun boshqarishi kerak.

Markaziy Amerikada yashovchi Yagua qabilasini o‘rgangan etnograf olim P.Fexosning ma'lumotiga ko‘ra, bu qabilada go‘dak yura boshlashi bilan onasi uni o‘ziga xos jamoani tashkil qilgan tengdoshlariga qo‘sib qo‘yardi. Go‘dakni ota-onasi emas, balki katta farzandlar gapirishga, shaxsiy gigienaga mal qilishga o‘rgatishar, atrof-muhit bilan tanitishar edi. Turli yoshdagil bolalarning o‘ynashlari ijtimoiylashuvning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lardi. Moboda, favqulodda hodisa ro‘y bermasa ota-onasi bu jarayonga kam aralashar, bolani tajriba orttirishga undardilar⁶⁸.

Qayta ijtimoiylashtirish jamiyat tomonidan inson haqidagi tushunchani o‘zgartirish uchun ishlatalidi. Masalan, ishdagi sheriklar uni qobiliyatsiz mutaxassis sifatida qabul qilganda va bu tasvirni doimo unga bog‘lashadi. Lekin u allaqachon malaka oshirish yoki qayta tayyorlash kurslarini tugatib, o‘z xatolarini to‘g‘rilab ancha yaxshi ishlay boshlashi yorqin misol bo‘ladi. Yoki jinoyatchi qamalganidan so‘nr o‘zining eski yomon odatlarini tashlashi, gunoh qilib qo‘yan odam chin yurakdan tavba qilishi va qaytib ijtimoiy me’yorlarni buzadigan ishlarga yaqinlashmasligi ham misol bo‘la oladi. Bunday holatlarda, qayta ijtimoiylashtirish jarayoni muhim ahamiyatga ega, ya’ni bu odam o‘zini yaxshiroq namoyon qilishi uchun joy yoki ish sharoitining o‘zgarishi, qisman vaqt va muhitning o‘zgarishi muhim. Ba’zida ijtimoiylashuv jarayoni birinchi 5 yillikda o‘ta qo‘pol buzilgan bo‘lsa bolani qayta ijtimoiylashtirish qiyin bo‘ladi.

Ijtimoiylashtirishning juda ko‘p usullari mavjud. “Bir necha yil oldingi tadqiqot tatijasiga ko‘ra britaniyalik bolalar bir yil davomida teleekran oldida maktabda o‘tkazilgan yuz kunga teng vaqtlarini o‘tkazar ekanlar. Kattalar ham bunga tahminan shuncha vaqt sarflaydilar. Natijalar yana shuni ko‘rsatganki, voqealar gazeta va televideniyada turlicha yoritilsa,

⁶⁸ Fejos P. Ethnographi of Yagua.N.Y., 1979. 129-b.

televiziyon versiyaga gazetaga nisbatan ikki barobar ko‘proq odam ishonar ekan”⁶⁹. Shunga qaramay, mutaxassislar ta‘kidlashlaricha, agar bolalar haqida gapiradigan bo‘lsak, bu psixoterapiya eng samarali va samarali usul hisoblanadi. Bunday chaqaloqlar bilan maxsus mutaxassislar ishlashi kerak, bundan tashqari, bu juda ko‘p vaqt ni oladi. Biroq, natijalar ko‘p holatlarda ijobiy bo‘ladi.

Jamiyat uchun doim muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz moslashish masalasi dolzARB bo‘lib qoladi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati oiladagi, maktabdagi va umuman jamiyatdagi kutilayotgan va haqiqiy holat o‘rtasidagi uyg‘unlik bilan belgilanadi. Muvaffaqiyatsiz ijtimoiylashuv, inson o‘z vaqtida o‘rgangan me'yorlari va qadriyatlari atrofdagi dunyo me'yorlari va qadriyatlari bilan mos kelmasa paydo bo‘ladi.

Shaxs ijtimoiylashuvi to‘g‘risida gap ketarkan, uning fanda ko‘pincha “shaxs taraqqiyoti” yoki “tarbiyasi” tushunchalari bilan sinonimdek ishlatilishiga alohida e’tibor berish kerak. Lekin ijtimoiylashuv sof ijtimoiy-psixologik tushuncha bo‘lib, aytib o‘tilgan tushunchalardan biroz farq qiladi.

XULOSA

Ijtimoiylashuv – bu individning ijtimoiy muhitga qo‘shilishi, ijtimoiy ta’sirlarni o‘ziga singdirishi va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib borishi jarayonidir. Bu jarayon ikki tomonlama bo‘lib, bir tomondan, shaxs aktiv ravishda ijtimoiy ta’sirlarni qabul qiladi, ikkinchi tomondan esa, ularni hayotda o‘z xulq-atvorlari, munosabatlarida namoyon etadi. Bu jarayon normal individda tabiiy tarzda ro‘y beradi, chunki individda shaxs bo‘lishga ehtiyoj va zaruriyat bordir. Shuning uchun ham bola tug‘ilib, ijtimoiy muhitga qo‘shilgan ondan boshlab, undagi shaxs bo‘lishga intilishni, undagi shakllanish jarayonini kuzatish mumkin (masalan, chaqaloqlardagi bevosita emotsional muloqotga ehtiyojning borligi).

Hozirgi globallashgan davrda virtual olam vositalari shunchalik ko‘p axborot yetkazib beradiki, ularni boshqa usul bilan olish mumkin emas. Gazetalar, kitob, radio, televiedeniya, filmlar, musiqalar va suratlari jurnallarning hammasi bir smartfonda joylandi va bu vosita biz tassavur qilishimiz qiyin bo‘lgan ma’lumotlarni ketma-ket chiqarib o‘smirlar, bolalar ijtimoiylashuviga sezilarli ta’sir qilmoqda⁷⁰ Odamlar bir - birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko‘zlagan maqsadlaridan biri - o‘zaro bir-birlariga ta’sir ko‘rsatish, ya’ni fikr-g‘oyalariga ko‘ndirish, harakatga chorlash, maqsadlarini o‘zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir.

⁶⁹ N.D.Qosimova O’smirlar ijtimoiylashuvida ibrat ijtimoiy psixologik xususiyatlarining ahamiyati. Diss..., T., 2010. 27-b

⁷⁰ N.D.Qosimova O’smirlar ijtimoiylashuvida ibrat ijtimoiy psixologik xususiyatlarining ahamiyati. Diss..., T., 2010. 27-b